

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
DAVLAT STATISTIKA QO‘MITASI
FARG‘ONA VILOYAT STATISTIKA BOSHQARMASI**

**FARG‘ONA VILOYATINING
STATISTIK AXBOROTNOMASI**

**2021 YIL
YANVAR-IYUN**

SO‘Z BOSHI

Farg‘ona viloyatining statistik axborotnomasi–viloyatning ijtimoiy–iqtisodiy rivojlanishi, iqtisodiyot tarmoqlari va hududlar holatini kompleks tavsiflovchi viloyat statistika boshqarmasining choraklik nashri hisoblanadi. Statistik axborotnomada 2021 yil yanvar-iyun oylari yakunlari bo‘yicha Farg‘ona viloyatining asosiy statistik ko‘rsatkichlari chop etilgan.

Ushbu nashrda 2017 yilning I choragidan boshlab, hisobot davri uchun statistik ko‘rsatkichlar Evropa hamjamiyatining Iqtisodiy faoliyat turlari statistik tasniflagichiga (NACE Rev.2) asoslangan O‘zbekiston Respublikasining iqtisodiy faoliyat turlari umumdavlat tasniflagichi (IFUT–2) bo‘yicha shakllantirilgan va taqdim etilgan.

Shu bilan birga, mavjud iqtisodiy faoliyat turlaridan foydalanishda IFUT–2 talablari qo‘llanilgan. Xususan, foydalanilayotgan yoki qayta ishlanayotgan mahsulotlarni ularning yangi turlarini qayta shakllantirishga yo‘naltirilgan barcha faoliyat turlarini ishlab chiqarish jarayonlariga kiritilgan: tog‘–kon sanoati va ochiq konlarni ishlash, qayta ishlab chiqarish sanoati, elektr, gaz, bug‘ bilan ta‘minlash va havoni konditsiyalash, suv ta‘minoti, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig‘ish va utilizatsiya qilish, qurilish (tasniflagichning B,C,D,E,F seksiyalari). Qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishini, iqtisodiyot tarmog‘i sifatida talqin qilishdagi tafovutni bartaraf etish maqsadida, yangilangan tasniflagichda qishloq xo‘jaligi faqatgina dexqonchilik va chorvachilik mahsulotlarini ishlab chiqarishni o‘z ichiga olmay, balki o‘rmon va baliq xo‘jaliklari mahsulotlarini ham o‘z ichiga oladi (Seksiya A “Qishloq, o‘rmon va baliq xo‘jaligi”).

Shuningdek, xalqaro statistika amaliyotiga muvofiq, iqtisodiy trendlarni yanada aniqroq tahlil qilish maqsadida, yalpi hududiy mahsulot tuzilmasidagi iqtisodiy faoliyat turlarining ulush ko‘rsatkichlari yalpi qo‘shilgan qiymatga nisbatan keltirilgan (ya‘ni, YAHM hajmidan mahsulotlarga soliqlar va subsidiyalar chiqarib tashlangan).

Nashr 13 ta tematik qismlardan tashkil topgan bo‘lib, u asosiy qisodiy ko‘rsatkichlarni, shuningdek yalpi hududiy mahsulotni ishlab chiqarish, korxonalar va tashkilotlarning tasnifi, jumladan kichik tadbirkorlik sub’ektlarining iqtisodiy faoliyati, investitsion faollik, qishloq, o‘rmon va baliq xo‘jaligi, sanoat, qurilish, bozor xizmatlarining rivojlanish dinamikasi to‘g‘risidagi statistika ma‘lumotlarini o‘z ichiga oladi.

Dokladda sanoat, qurilish, qishloq xo‘jaligi, transport, ichki va tashqi savdo, chakana savdo aylanmasi, moliyaviy ko‘rsatkichlar va demografik holat to‘g‘risidagi tahliliy ma‘lumotlar keng yoritilgan.

Dastlabki hisoblarga asosan kelgusida aniqlik kiritilishi mumkin bo‘lgan ko‘rsatkichlar keltirilmoqda.

Qisqartma va shartli belgilar

YaHM	–	yalpi hududiy mahsulot	l.	–	litr
%.	–	%	0,0	–	katta bo‘lmagan miqdor
mlrd.	–	milliard	m.	–	marta
mln.	–	million	–	–	ko‘rsatkichning yo‘qligi
mln.AQSH doll.	–	million AQSH dollari	ga.	–	gektar
kv.	–	kvadrat	tn.	–	tonna
km.	–	kilometr	1), 2), 3) , ,	–	izohning mavjudligi
m.	–	metr			

MUNDARIJA

Nomi	bet
ASOSIY IQTISODIY KO'RSATKICHLAR	6
I. YALPI HUDUDIY MAHSULOT ISHLAB CHIQARISH	7-11
II. SANOAT	12-23
III. QISHLOQ, O'RMON VA BALIQCHILIK XO'JALIGI	24-64
IV. INVESTITSIYALAR VA QURILISH	65-82
V. KORXONA VA TASHKIOTLARNING MOLIYAVIY NATIJALARI	83-90
VI. KICHIK TADBIRKORLIK (BIZNES)	91-107
VII. KORXONALAR VA TASHKIOTLAR FAOLIYATINING UMUMIY TAVSIFI	108-122
VIII. XIZMATLAR	123-129
IX. TRANSPORT VA ALOQA	130-136
X. TOVAR VA XIZMATLAR BOZORI	137-144
XI. TASHQI IQTISODIY ALOQALAR	145-156
XII. DEMOGRAFIK HOLAT	157-164
XIII. O'RTACHA OYLIK NOMINAL HISOBLANGAN ISH HAQI	165

Asosiy iqtisodiy ko'rsatkichlar
2021 yil yanvar-iyun

	<i>mlrd.so'm</i>	<i>2020 yil yanvar-iyuniga nisbatan % hisobida</i>
Yalpi hududiy mahsulot	20 200,5	105,6
Sanoat mahsulotlari ¹⁾	11 011,1	101,1
Istemol tovarlari	4 184,2	101,2
Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi mahsulot(xizmat)lari	11 483,5	103,7
Asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar	5 923,9	112,7
Qurilish ishlari	3 108,0	109,5
Yuk aylanmasi (<i>mln. tn-km</i>)	1 466,2	108,8
Yo'lovchi aylanmasi (<i>mln. pass.-km</i>)	6 595,3	102,7
Chakana savdo tovar aylanmasi	8 333,8	106,4
Xizmatlar, jami	7 934,1	119,0
Tashqi savdo aylanmasi, (<i>mln. AQSH. doll</i> ²⁾)	790,0	124,7
Eksport	346,7	139,5
Import	443,3	115,2
Saldo (+,-)	-72.6	x

1) Fizik xajm indeksi

2) Davlat bojxona qo'mitasining aniqlashtirilgan ma'lumotlarini hisobga olgan holda

I. YALPI HUDUDIY MAHSULOT

Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2021 yil yanvar-iyun oylarida Farg'ona viloyati bo'yicha yalpi hududiy mahsulot (keyingi o'rinlarda YaHM) hajmi joriy narxlarda 20 200,5 mlrd. so'mni tashkil etdi va 2020 yilning tegishli davriga nisbatan 5,6 %ga o'sdi.

2021 yining yanvar-iyun yakunlari bo'yicha aholi jon boshiga YaHM 5 265,6 ming so'mni tashkil etdi va bu ko'rsatkich o'tgan yilga nisbatan 3,7 %ga o'sdi.

O'zbekiston Respublikasi bo'yicha YaIMni shakllantirishda Farg'ona viloyatining qo'shgan hissasi 6,3 %ni tashkil etdi.


Yalpi hududiy mahsulot

	mlrd.so'm		2020 yil yanvar-iyun oyiga nisbatan, % hisobida
	2020 yil	2021 yil	
I. Yalpi hududiy mahsulot, jami	16 538,4	20 200,5	105,6
<i>shu jumladan:</i>			
Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati	16 028,1	19 515,2	105,6
Mahsulotlarga sof soliqlar	510,3	685,3	106,1
II. Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati	16 028,1	19 515,2	105,6
Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi	5 099,3	6 606,2	103,8
Sanoat (qurilishni qo'shgan holda)	4 426,2	5 050,0	103,3
sanoat	3 274,1	3 681,0	101,1
qurilish	1 152,1	1 369,0	109,5
Xizmatlar	6 502,6	7 859,0	108,6
savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	1 305,5	1 605,0	110,1
tashish va saqlash, axborot va aloqa	931,0	1 272,5	123,2
boshqa xizmat tarmoqlari	4 266,1	4 981,5	104,9

Yalpi hududiy mahsulot (YaHM) – milliy hisoblar tizimining asosiy ko'rsatkichi bo'lib, muayyan davrda mintaqaning iqtisodiy hududida joylashgan rezident – institutsional birliklar ishlab chiqarish faoliyatining yakuniy natijasini ifodalaydi. YAHM ishlab chiqarish usulida, iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yalpi qo'shilgan qiymat hajmi va mahsulotlarga sof soliqlar yig'indisi orqali hisoblanadi.

Hudud iqtisodiyotning asosiy tarmoqlarida kuzatilgan o'sish sur'atlari YaHM o'sishida asosiy omil bo'lib xizmat qildi. Jumladan, qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi tarmog'ining o'sish sur'ati 103,8 %, (YaHM tarkibidagi ulushi – 33,9 %), sanoat – 101,1 % (18,9 %), qurilish – 109,5 % (7,0 %), savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar – 110,1 % (8,2 %), tashish va saqlash, axborot va aloqa – 123,2 % (6,5 %) va xizmat ko'rsatuvchi boshqa tarmoqlar – 104,9 % (25,5 %) ni tashkil etdi.


2021 yilning yanvar-iyunida YaHM ning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha o'sish sur'atlari



Hudud iqtisodiyotining barcha tarmoqlarida yaratilgan yalpi qo‘shilgan qiymat (YaQQ) hajmi umumiy YaHMning 96,6 %ni, mahsulotlarga sof soliqlar esa 3,4 %ni tashkil etdi.

Qishloq, o‘rmon va baliq xo‘jaligi YaHMning tarmoqlar bo‘yicha tarkibidagi ulushi 2,1 % punktga o‘sdi va hisobot davrida 33,9 %ni tashkil etdi. Sanoat (qurilishni qo‘shgan holda) tarmog‘ining ulushi 1,7 % punktga pasaydi va 25,9 %ni tashkil etdi. Xizmatlar sohasining YaHM tarkibidagi ulushi 2021 yilning yanvar-iyunida 40,2 %ni tashkil etdi va 2020 yil (40,6 %) bilan taqqoslanganda 0,4 % punktga kamaydi.


Yalpi hududiy mahsulotning tarmoqlar bo‘yicha tarkibi
(yanvar–iyun holatiga, jamiga nisbatan %da)



Savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarning YaHM tarkibidagi ulushi 8,2 %ni (2020 y. – 8,1 %), tashish va saqlash, axborot va aloqa – 6,5 %ni (5,8 %), xizmat ko'rsatuvchi boshqa tarmoqlar – 25,5 %ni (26,7 %) tashkil etdi.


Xizmatlar sohasining yalpi qo'shilgan qiymati tarkibi

(yanvar–iyun, jamiga nisbatan %da)




Joriy yilning yanvar-iyun oylari davomida dastlabki ma'lumotlarga ko'ra yalpi hududiy mahsulot aholi jon boshiga 5 265,6 ming so'mni tashkil etdi va o'tgan yilning (4 390,4 ming so'm) mos davriga nisbatan 3,7 %ga o'sdi. Shu bilan birga viloyatda yirik korxonalar iqtisodiy faoliyati jadallashi oqibatida YaHMda kichik biznes ulushi 69,2 %ni tashkil qildi.

YaHMda kichik biznesning ulushi
(yanvar-dekabr oylari, jamiga nisbatan %da)



2021 yilning yanvar-iyunida YaHM ning deflyator indeksi bo'yicha o'sish sur'atlari (%)




Iqtisodiy faoliyat turlari

I. SANOAT

Dastlabki ma'lumotlar bo'yicha 2021 yil yanvar-iyun oylarida viloyat korxonalari tomonidan 11 011,1 mlrd. so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo'lib, o'tgan yilning tegishli davriga nisbatan sanoat ishlab chiqarish indeksi 101,1 %ni tashkil etdi.

Sanoat ishlab chiqarish tarkibida eng katta ulush ishlab chiqaradigan sanoat hissasiga to'g'ri kelib, uning jami sanoat ishlab chiqarishdagi ulushi (93,1 %)ni tashkil etdi.

Yanvar-iyun oylarida asosiy iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha sanoat ishlab chiqarish tarkibi (jami sanoat maxsulotlari ishlab chiqarish hajmiga nisbatan %da)



Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash

Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash korxonalari tomonidan 2021 yil yanvar-iyun oylarida ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 62,5 mlrd.so'mni yoki jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 0,5 %ni tashkil etdi.


Tog'-kon sanoati bilan bog'liq boshqa faoliyat turi hajmida 21,2 %ga pasayish kuzatildi.

Ishlab chiqaradigan sanoat (qayta ishlash sanoati)

2020 yilning yanvar-iyun oylarida ishlab chiqaradigan sanoat korxonolari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 10251,9 mlrd.so‘mni yoki jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 93,1 %ni tashkil etdi.

Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida yuqori texnologiyali tarmog‘ining hajmi 34,1 mlrd. so‘mni, (ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 0,3 %), o‘rta-yuqori texnologiyali– 1324,1 mlrd. so‘mni, (12,0 %), o‘rta-quyi texnologiyali 2810,8 mlrd. so‘mni (25,5 %), va quyi texnologiyali – 6083,0 mlrd. so‘mni, (55,2 %) tashkil etdi.


Yanvar-iyun oylarida ishlab chiqarishning texnologik tarkibi bo‘yicha ishlab chiqaradigan sanoat tarkibi, %da



Ishlab chiqaradigan sanoatda yirik sanoat korxonalari tomonidan natura ko‘rinishida ayrim turdagi sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

(2021 yil yanvar-iyun oylari uchun)

2021- yilning yanvar-iyun oylari davomida ishlab chiqaradigan sanoatda 434,4 ming tonna. klinkersement (2020- yilning yanvar-iyun oylariga nisbatan 23,6 %ga o‘sgan), 30,0 ming tonna. Gips (23,1 %) ishlab chiqarilib, yuqori o‘shish sur‘atlari kuzatildi.



Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash

Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash korxonalarini tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 627,1 mlrd. so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 5,7 %ni) tashkil etdi.

2021- yilning yanvar-iyun oylarida, sanoatning mazkur tarmog'ida elektr energiyani ishlab chiqarish, uzatish va taqsimlash, bug' bilan ta'minlash tizimlari va havoni konditsiyalash o'tgan yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi 8,0 %ga o'sishi kuzatildi.

Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilizatsiya qilish

Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilizatsiya qilish korxonalarini tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 69,6 mlrd. so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 0,6 %ni) tashkil etdi.

O'tgan yilning mos davriga nisbatan axlat o'ralarni, tindirgichlarni va septiklarni bo'shatish, tozalash va ishlov berish bo'yicha xizmatlar 4,7 % ga, oqava suvlarni yo'qotish, transportirovka qilish va ishlov berish bo'yicha xizmatlar – 10,1 %ga o'sishi, to'qimachilik chiqindilari esa 2,1 martaga oshganligi, kuzatildi.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish (2021 yil yanvar-iyun oylari uchun)


	<i>mlrd.so'm</i>	<i>jamiga nisbatan % da</i>
Ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmi	11 011,1	100,0
Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash	62,5	0,6
<i>ulardan:</i>		
Tog'-kon sanoatining boshqa turlari	62,5	0,6
Qayta ishlash sanoati	10 251,9	93,1
<i>undan:</i>		
oziq-ovqat mahsulotlari, ichimliklar va tamaki mahsulotlarini ishlab chiqarish	1 722,2	15,6
to'qimachilik mahsulotlari, kiyim va teri mahsulotlarini ishlab chiqarish	3 883,3	35,3

	<i>mlrd.so‘m</i>	<i>jamiga nisbatan % da</i>
yog‘och va po‘kak buyumlar, pohl va to‘qish uchun materiallardan buyumlar, qog‘oz va qog‘oz mahsulotlari	159,6	1,4
yozilgan materiallarni nashr qilish va aks ettirish	2,6	0,02
Qog‘oz va qog‘oz mahsulotlari ishlab chiqarish	89,6	0,8
koks va neftni qayta ishlash mahsulotlari ishlab chiqarish	1 070,6	9,7
kimyo mahsulotlari, rezina va plastmassa buyumlar ishlab chiqarish	991,8	9,0
asosiy farmatsevtika mahsulotlari va preparatlarini ishlab chiqarish	22,0	0,20
boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarish	1 232,4	11,2
metallurgiya sanoati	61,4	0,6
Mashina va uskunalardan tashqari tayyor metall buyumlar ishlab chiqarish	226,7	2,1
Kompyuterlar, elektron va optik mahsulotlar ishlab chiqarish	12,1	0,1
Elektr uskunarlar ishlab chiqarish	59,2	0,5
Boshqa toifalarga kiritilmagan mashina va uskunarlar ishlab chiqarish	67,2	0,6
Avtotransport vositalari, treylerlar va yarim pritseplar ishlab chiqarish	157,7	1,4
Boshqa transport uskunalari ishlab chiqarish	48,2	0,4
Mebel ishlab chiqarish	82,1	0,7
Boshqa tayyor buyumlar ishlab chiqarish	143,6	1,3
Mashina va uskunalarni ta‘mirlash va o‘rnatish	16,2	0,1
Elektr, gaz, bug‘ bilan ta‘minlash va havoni konditsiyalash	627,1	5,7

	<i>mlrd.so‘m</i>	<i>jamiga nisbatan % da</i>
Suv bilan ta‘minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig‘ish va utilizatsiya qilish	69,6	0,6

Iste‘mol tovarlari ishlab chiqarish

Tayyor mahsulot turlarini kengaytirish va ishlab chiqarilishini qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha amalga oshirib kelinayotgan chora-tadbirlar natijasida, iste‘mol mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi 4 184,2 mlrd.so‘mni tashkil etdi va uning jami sanoatdagi ulushi 38,0 %ni tashkil etdi.




**Hududlar bo'yicha iste'mol mahsulotlari ishlab
chiqarish hajmi, tarkibi va o'sish sur'ati**
2021- yilning yanvar-iyun oylarida

	<i>Hajmi mlrd. so'm</i>	<i>Ulushi %</i>	<i>O'sish sur'ati %</i>
1 <i>Oltiariq t.</i>	60,8	1,5	210,7
2 <i>Qo'shtepa t.</i>	112,4	2,7	71,0
3 <i>Bag'dod t.</i>	333,7	8,0	128,8
4 <i>Buvayda t.</i>	159,8	3,8	103,4
5 <i>Beshariq t.</i>	67,8	1,6	57,1
6 <i>Quva t.</i>	108,5	2,6	114,7
7 <i>Uchko'prik t.</i>	712,8	17,0	93,2
8 <i>Rishton t.</i>	104,6	2,5	169,9
9 <i>So'x t.</i>	30,5	0,7	100,5
10 <i>Toshloq t.</i>	309,0	7,4	100,5
11 <i>O'zbekiston t.</i>	115,5	2,8	113,6
12 <i>Farg'ona t.</i>	50,0	1,2	100,9
13 <i>Dang'ara t.</i>	167,3	4,0	101,5
14 <i>Furqat t.</i>	117,7	2,8	180,0
15 <i>Yozyovon t.</i>	56,0	1,3	126,6
16 <i>Farg'ona sh.</i>	485,9	11,6	90,8
17 <i>Qo'qon sh.</i>	757,2	18,1	96,3
18 <i>Quvasoy sh.</i>	73,2	1,8	118,2
19 <i>Marg'ilon sh.</i>	361,5	8,6	106,1
<i>Farg'ona viloyati</i>	4184,2	100,0	101,2


Hududlarning sanoat ishlab chiqarishdagi fizik hajm indeksi (FHI)

(2021 yil yanvar-iyun oylari uchun %da)




Hududlarning viloyat jami sanoat ishlab chiqarish hajmidagi ulushi

(2021 yil yanvar-iyun oylari uchun)




Sanoat ishlab chiqarishda kichik biznesning hissasi

Kichik tadbirkorlik sub'ektlari sanoat ishlab chiqarishda keskin faollashgani natijasida ular tomonidan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi mos ravishda oshishiga olib keldi, o'z navbatida kichik biznesning jami sanoat ishlab chiqarishdagi ulushi esa 39,6 %ni tashkil etmoqda.



Hududlar bo'yicha yirik korxonalar va kichik biznesning sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi ulushi.


(2021 yil yanvar-iyun, % hisobida)



Aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishning taqsimlanishi, yirik sanoat korxonalari joylashganligi hisobiga Farg‘ona (9 758,9 ming so‘m), Qo‘qon (7 043,3 ming so‘m), Quvasoy (5 820,9 ming so‘m) shaharlarida va Toshloq (7 166,0 ming so‘m) tumanida yuqoriligini ko‘rsatmoqda.

Farg‘ona viloyati bo‘yicha aholi jon boshiga iste‘mol mahsulotlari ishlab chiqarilishi 1 090,7 ming so‘m bo‘lgan holda, Uchko‘prik tumani – 3 059,2 ming so‘mni, Qo‘qon shahri – 2 943,9 ming so‘mni, Farg‘ona shahri – 1 648,3 ming so‘mni, Bag‘dod tumani – 1 518,1 ming so‘mni, Toshloq tumani 1 498,3 ming so‘mni, Dang‘ara tumani – 943,1 ming so‘mni, Furqat tumanida 982,5 ming so‘mni tashkil etdi.

**Hududlar bo‘yicha aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari va iste‘mol tovarlari
ishlab chiqarish hajmi, ming so‘mda
(2021 yil yanvar-iyun oylari uchun)**




Faoliyat yuritayotgan va yangi tashkil etilgan sanoat korxonalari.

Bugungi kunda viloyatda 9 826 ta sanoat korxonalari faoliyat ko'rsatmoqda, shundan 1 484 tasi (ro'yxatdan o'tgan korxonalar umumiy sonining 15,1 %) Qo'qon shahriga, 1 115 tasi (11,3 %) Farg'ona shahriga, 1 080 tasi (11,1 %) Marg'ilon shahriga, 679 tasi (6,9 %) Uchko'prik tumaniga, 568 tasi (5,8 %) O'zbekiston tumaniga, 548 tasi (5,6 %) Buvayda tumaniga to'g'ri kelmoqda.

2021- yilning yanvar-iyun oyida viloyatda 1233 ta yangi sanoat korxonalari tashkil etildi, shulardan 119 tasi (jami yangi tashkil etilgan sanoat korxonalari hajmidagi ulushi 9,6 %) Qo'qon shahrida, 99 tasi (8,0 %) Farg'ona shahrida, 93 tasi (7,5 %) Marg'ilon shahrida, 80 tasi (6,4 %) Uchko'prik tumanida, 82 tasi (6,6 %) Dang'ara tumanida, 73 tasi (5,9 %) Rishton tumanida, 55 tasi (4,5 %) Oltiariq tumanida, hamda 69 tasi (5,6 %) O'zbekiston tumanida tashkil etildi.

Farg'ona viloyatida faoliyat ko'rsatayotgan xamda yil boshida yangi tashkil etilgan korxonalar

(2021 yil yanvar-iyun oylari uchun, soni birlikda)



Viloyatda sanoat korxonalarining mahalliyashtirish darajasi *(2021 yil yanvar-iyun oylari uchun)*

2020- yil yanvar-iyun oylarida viloyat bo'yicha 110 ta korxonalar mahalliyashtirish dasturiga kiritilgan bo'lib, ulardan 96 tasi mahalliy korxonalar hisoblanadi. Bu korxonalar tomonidan 139 loyihalar dasturga kiritilgan. Joriy yilning yanvar-iyun oylarida 110 ta korxonadan 86 tasi mahalliyashtirishni amalga oshirgan va ular tomonidan 114 ta loyiha bo'yicha mahsulot ishlab chiqarilgan. 2021- yil yanvar-iyun oylarida korxonalar tomonidan taqdim etilgan hisobotlarga ko'ra 448.1 mlrd.so'mlik mahsulot ishlab chiqarilgan bo'lib, 0,8 mln AQSh dollar miqdorida eksport amalga oshirilgan.

III. QISHLOQ, O‘RMON VA BALIQCHILIK XO‘JALIGI

Dastlabki ma’lumotlarga ko‘ra, 2021 yilning yanvar-iyun oylarida qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi mahsulot (xizmat) larining umumiy hajmi 11483,5 mlrd. so‘mni yoki 2020 yilning mos davriga nisbatan 103,7 %ni, shu jumladan, dehqonchilik va chorvachilik, ovchilik va ushbu sohalarda ko‘rsatilgan xizmatlar – 11312,7 mlrd. so‘mni (103,7 %), o‘rmon xo‘jaligi – 129,9 mlrd. so‘mni (101,4 %), baliq xo‘jaligi – 40,6 mlrd. so‘mni (121,5 %) tashkil qildi. Respublika qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi tarkibida Farg‘ona viloyatining ulushi 9,8 %ni tashkil etdi.



11483,5

Farg‘ona viloyatining qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi mahsulot (xizmat) larining hajmi, mlrd.



11312,7

Dehqonchilik va chorvachilik, ovchilik va shu sohalarda ko‘rsatilgan xizmatlar

129,9

O‘rmon xo‘jaligi

40,6

Baliqchilik xo‘jaligi

2021 yilning yanvar-iyun yakunlariga ko‘ra, qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi mahsulot (xizmat)lar umumiy hajmining 98.5 % dehqonchilik va chorvachilik,


ovchilik va ushbu sohalarida ko'rsatilgan xizmatlar, 1,1 % o'rmon xo'jaligi, 0,4 % baliqchilik xo'jaligi hissasiga to'g'ri keladi.

Hududlar kesimida qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsulotlar hajmi

(2021 yil yanvar-iyun)

	Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsulotlar hajmi		Aholi jon boshiga, (ming so'm)
	mld. so'm	2020 yil yanvar-iyun oylariga nisbatan, o'sish sur'ati %da	
Viloyat jami	11483,5	103,7	2993,4
Farg'ona sh	309,3	100,5	1 049,1
Qo'qon sh	98,2	86,4	381,8
Quvasoy sh	533,8	100,9	5 595,6
Mapg'ilon sh	260,4	100,9	1 086,2
Oltiariq	1 105,4	106,0	5 131,8
Qo'shtepa	716,3	107,6	3 684,8
Bog'dod	772,4	105,9	3 514,0
Buvayda	687,8	102,7	2 963,2
Beshariq	811,6	105,7	3 505,9
Quva	878,2	100,5	3 349,5
Uchko'prik	743,4	99,0	3 191,8
Rishton	820,9	102,5	4 000,5
So'x	175,5	104,7	2 210,4
Toshloq	623,2	110,9	3 023,9
O'zbekiston	777,6	94,2	3 202,6
Farg'ona	817,3	117,9	3 761,4
Dang'ara	594,7	103,8	3 352,2
Furqat	383,0	103,5	3 196,8
Yozyovon	374,5	101,1	3 322,7


**Shahar va tumanlar kesimida qishloq, o‘rmon va baliqchilik
xo‘jaligi mahsulot (xizmat)larining hajmi (mlrd.so‘m)**



2021 yining I yanvar-iyun oylarida, shahar va tumanlar kesimida qishloq, o‘rmon va baliq xo‘jaligi mahsulot (xizmat)larining eng yuqori hajmi Oltiariq tumani (1105,4 mlrd. so‘m) va Quva tumanida (878,2 mlrd. so‘m) qayd etildi. Aksincha kam hajmga ega hududlarga Qo‘qon shahar (98,2 mlrd. so‘m), So‘x tumanida (175,5 mlrd. so‘m) va Marg‘ilon shaharlarini (260,4 mlrd. so‘m) keltirib o‘tish mumkin.

Viloyat ko‘rsatkichidan (103,7 %) yuqori o‘shish sur‘atlari Farg‘ona (117,9 %), Toshloq (110,9%), Qo‘shtepa (107,6 %) va Oltiariq (106,0 %) tumanlarida kuzatildi. Qo‘qon shahar (86,4 %), O‘zbekiston (94,2%) va Uchko‘prik (99,0%) tumanlarida, Farg‘ona shahar (100,5 %), Quva (100,5 %) tumani, Marg‘ilon (101,4 %) va Quvasoy (100,9%) shaharlari esa aksincha o‘shish sur‘atlari pastligi kuzatildi.


Hududlar bo'yicha qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi mahsulot (xizmat)larining o'sish sur'ati




Qishloq xo'jaligi mahsulotlari

2021 yining yanvar-iyun oylarida ishlab chiqarilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari hajmi 11 242,0 mlrd. so'mni yoki 2020 yilning mos davriga nisbatan 103,7 % ni, shu jumladan, dehqonchilik mahsulotlari 6161,0 mlrd. so'mni (103,1 %), chorvachilik mahsulotlari 5081,0 mlrd. so'mni (104,2 %) tashkil qildi.


Qishloq xo'jaligi mahsulotlari ishlab chiqarish hajmida dehqonchilik va chorvachilik mahsulotlarining ulushi



**Ishlab chiqarilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari
hajmining hududlar kesimida taqsimlanishi, % da**




**Qishloq xo'jaligi mahsulotlari ishlab chiqarish hajmida
dehqonchilik va chorvachilik mahsulotlarining ulushi**



Xo'jalik toifalari bo'yicha tahlillar, qishloq xo'jaligi mahsulotlari umumiy hajmining 72,8 % – dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklariga, 24,5 % fermer xo'jaliklariga, 2,7 % – qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri kelishini ko'rsatmoqda.

Ishlab chiqarilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlarining hududlar bo'yicha xo'jalik toifalari kesimida taqsimlanishi, %da




2021 yining yanvar-iyun oylari yakuniga ko'ra ishlab chiqarilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari tarkibidagi ferma xo'jaliklarining ulushi bo'yicha eng yuqori ko'rsatkich Quvasoy tumanida (43,7%), dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklarining eng yuqori ulushi Marg'ilon shahrida (100,0 %), qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarning eng yuqori ulushi Farg'ona tumanida (18,6 %) qayd etildi.

Ferma xo'jaliklarining qishloq xo'jaligi mahsuloti tarkibidagi ulushi bo'yicha eng kam ko'rsatkich So'x tumanida (6,3 %), dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklarining eng kam ulushi Quvasoy shahrida (51,7 %), qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarning eng kam ulushi Rishton tumanida (0,0 %) qayd etildi.


Dehqonchilik

2021 yining yanvar-iyun oylarida ishlab chiqarilgan dehqonchilik mahsulotlarining hajmi 6161,0 mlrd. so'mni yoki 2020 yilning mos davriga nisbatan 103,1 %ni tashkil etdi. Ishlab chiqarilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlarining umumiy hajmida dehqonchilik mahsulotlarining ulushi 54,8 %ni tashkil qildi.

Donli ekinlar



Ishlab chiqarilgan mahsulotning xo'jalik toifalari bo'yicha taqsimlanishi




- Fermer xo'jaliklari
- Dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari
- Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar



2021 yining yanvar-iyun oylarida barcha toifadagi xo'jaliklar tomonidan 554 156 tonna donli ekinlar (2020 yilning yanvar-dekabriga nisbatan 5,2 %ga ko'p) ishlab chiqarildi. Jami don ishlab chiqarish ko'rsatkichlarini xo'jaliklar toifalari bo'yicha tahlil qilinganda, jami don ishlab chiqarish umumiy hajmidan 93,1 % fermer xo'jaliklari hissasiga to'g'ri kelishini ko'rsatmoqda.




**Farg‘ona viloyati bo‘yicha
donli ekinlar etishtirish
hajmi, tonna**




Sabzavotlar


Hajmi, t.



O'sish sur'ati, %da



Ishlab chiqarilgan mahsulotning xo'jalik toifalari bo'yicha taqsimlanishi




- Fermer xo'jaliklari
- Dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari
- Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar





2021 yining yanvar-iyun oylarida barcha toifadagi xo'jaliklar tomonidan 415051 tonna sabzavotlar (2020 yilning yanvar-iyun nisbatan 6,3 %ga ko'p) ishlab chiqarildi. Sabzavot ishlab chiqarish ko'rsatkichlarini xo'jaliklar toifalari bo'yicha tahlil qilinganda, sabzavot ishlab chiqarish umumiy hajmidan 92,4 % dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari hissasiga to'g'ri kelishini ko'rsatmoqda.




Farg'ona viloyati bo'yicha
sabzavotlar etishtirish
hajmi, tonna



Kartoshka



Ishlab chiqarilgan mahsulotning xo'jalik toifalari bo'yicha taqsimlanishi




- Fermer xo'jaliklari
- Dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari
- Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar



2021 yining yanvar-iyun oylarida barcha toifadagi xo'jaliklar tomonidan 191 363 tonna kartoshka (2020 yilning yanvar-iyuniga nisbatan 2,3 %ga ko'p) ishlab chiqarildi. Kartoshka ishlab chiqarish ko'rsatkichlarini xo'jaliklar toifalari bo'yicha tahlil qilinganda, kartoshka ishlab chiqarish umumiy hajmidan 95,2 % dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari hissasiga to'g'ri kelishini ko'rsatmoqda.




**Farg‘ona viloyati bo‘yicha
kartoshka etishtirish
hajmi, tonna**




Poliz


Hajmi, t.



O'sish sur'ati, %da



Ishlab chiqarilgan mahsulotning xo'jalik toifalari bo'yicha taqsimlanishi




- Fermer xo'jaliklari
- Dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari
- Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar




2021 yining yanvar-iyun oylarida barcha toifadagi xo'jaliklar tomonidan 11 958 tonna poliz (2020 yilning yanvar-iyuniga nisbatan 57,6 %ga ko'p) ishlab chiqarildi. Poliz ishlab chiqarish ko'rsatkichlarini xo'jaliklar toifalari bo'yicha tahlil qilinganda, poliz ishlab chiqarish umumiy hajmidan 70,1 % fermer xo'jaliklari hissasiga to'g'ri kelishini ko'rsatmoqda.




Farg‘ona viloyati bo‘yicha
poliz etishtirish
hajmi, tonna



Meva va rezevorlar




Ishlab chiqarilgan mahsulotning xo'jalik toifalari bo'yicha taqsimlanishi



2021 yiningl yanvar-iyun oylarida barcha toifadagi xo'jaliklar tomonidan 173224 tonna meva va rezevorlar (2020 yilning yanvar- iyuniga nisbatan 2,8 %ga ko'p) ishlab chiqarildi. Meva va rezevorlar ishlab chiqarish ko'rsatkichlarini xo'jaliklar toifalari bo'yicha tahlil qilinganda, meva va rezevorlar ishlab chiqarish umumiy hajmidan 51,4 % dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari hissasiga to'g'ri kelishini ko'rsatmoqda.




**Farg'ona viloyati bo'yicha
meva va rezevorlar etishtirish
hajmi, tonna**




Uzum


Hajmi, t.



O'sish sur'ati, %da



Ishlab chiqarilgan mahsulotning xo'jalik toifalari bo'yicha taqsimlanishi




- Fermer xo'jaliklari
- Dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari
- Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar



2021 yilning yanvar-iyun oylarida barcha toifadagi xo'jaliklar tomonidan 2 191 tonna uzum (2020 yilning yanvar-iyuniga nisbatan 2,8 %ga ko'p) ishlab chiqarildi. Uzum ishlab chiqarish ko'rsatkichlarini xo'jaliklar toifalari bo'yicha tahlil qilinganda, uzum ishlab chiqarish umumiy hajmidan 84,5 % dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari hissasiga to'g'ri kelishini ko'rsatmoqda.



**Farg‘ona viloyati bo‘yicha
uzum etishtirish
hajmi, tonna**



**2021 yining yanvar-iyun oylarida dehqonchilik
mahsulotlarini etishtirish**

	<i>tonna</i>	<i>O'sish sur'ati, %da</i>
Don jami	554 156	105,2
<i>shu jumladan:</i>		
Fermer xo'jaliklari	514 922	104,5
Dehqon (aholining shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari	14 707	99,3
Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar	24 527	128,3
shundan boshqali don	535 147	106,8
<i>shu jumladan:</i>		
Fermer xo'jaliklari	510 316	106,0
Dehqon (aholining shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari	304	67,3
Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar	24 527	128,3
SHu jamladan bug'doy	529 415	105,7
<i>shu jumladan:</i>		
Fermer xo'jaliklari	504 584	104,8
Dehqon (aholining shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari	304	67,3
Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar	24 527	128,3
Kartoshka	191 363	102,3
<i>shu jumladan:</i>		
Fermer xo'jaliklari	5870	214,1
Dehqon (aholining shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari	182 260	100,6
Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar	3 233	105,0
Sabzavotlar jami	415 051	106,3


	<i>tonna</i>	<i>O'sish sur'ati, %da</i>
<i>shu jumladan:</i>		
Fermer xo'jaliklari	28 655	220,5
Dehqon (aholining shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari	383 433	102,3
Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar	2 963	100,1
Poliz	11 958	157,6
<i>shu jumladan:</i>		
Fermer xo'jaliklari	8 379	202,9
Dehqon (aholining shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari	3 559	103,0
Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar	20	
Meva va rezavorlar	173 224	102,8
<i>shu jumladan:</i>		
Fermer xo'jaliklari	82 560	105,4
Dehqon (aholining shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari	89 031	100,3
Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar	1 633	115,4
Uzum	2 191	110,2
<i>shu jumladan:</i>		
Fermer xo'jaliklari	290	268,5
Dehqon (aholining shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari	1 851	98,4
Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar	50	

Chorvachilik


2021 yining yanvar-iyun oylarida chorvachilik mahsulotlarini ishlab chiqarish hajmi 5081,0 mlrd. soʻmni yoki 2020 yilning mos davriga nisbatan 104,2 %ni tashkil qildi. Ishlab chiqarilgan qishloq xoʻjaligi mahsulotlarining umumiy hajmida chorvachilik mahsulotlarining ulushi 45,2 %ni tashkil etdi.

Goʻsht (tirik vaznda)


Hajmi, ming t.



Oʻsish surʻati, %da



Ishlab chiqarilgan mahsulotning xoʻjalik toifalari boʻyicha taqsimlanishi




- Fermer xoʻjaliklari
- Dehqon (shaxsiy yordamchi) xoʻjaliklari
- Qishloq xoʻjaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar



2021 yining yanvar-iyun oylarida barcha toifadagi xoʻjaliklar tomonidan tirik vaznda 83,6 ming tonna goʻsht (2020 yilning yanvar-iyuniga nisbatan 6,7 %ga koʻp) ishlab chiqarildi. Goʻsht ishlab chiqarish koʻrsatkichlari xoʻjaliklar toifalari boʻyicha tahlil etilganda, goʻsht ishlab chiqarish umumiy hajmidan 84,2 % dehqon (shaxsiy yordamchi) xoʻjaliklari hissasiga toʻgʻri kelganini qayd etish zarur.




**Farg‘ona viloyati bo‘yicha
go‘sh t (tirik vaznda)
etishtirish hajmi, tonna**




Sut


Hajmi, ming t.



O'sish sur'ati, %da



Ishlab chiqarilgan mahsulotning xo'jalik toifalari bo'yicha taqsimlanishi




- Fermer xo'jaliklari
- Dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari
- Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar



2021 yining yanvar-iyun oylarida barcha toifadagi xo'jaliklar tomonidan 484,6 ming tonna sut (2020 yilning yanvar-iyuniga nisbatan 5,6 %ga ko'p) ishlab chiqarildi. Sut ishlab chiqarish ko'rsatkichlarini xo'jalik toifalari bo'yicha tahlil qilinganda, sut ishlab chiqarish umumiy hajmidan 92,5 % dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari hissasiga to'g'ri kelishini ko'rsatmoqda.




**Farg‘ona viloyati bo‘yicha
ishlab chiqarilgan
sut hajmi, tonna**




Tuxum


Hajmi, mln. dona



O'sish sur'ati, %da



Ishlab chiqarilgan mahsulotning xo'jalik toifalari bo'yicha taqsimlanishi




- Fermer xo'jaliklari
- Dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari
- Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar



2021 yilning yanvar-iyun oylarida barcha toifadagi xo'jaliklar tomonidan 265,1 mln. dona tuxum (2020 yilning yanvar-iyuniga nisbatan 5,4 %ga ko'p) ishlab chiqarildi. Tuxum ishlab chiqarish ko'rsatkichlari xo'jalik toifalari bo'yicha tahlil etilganda, tuxum ishlab chiqarish umumiy hajmidan 67,3 % dehqon (shaxsiy yordamchi) hissasiga to'g'ri keldi.




Farg‘ona viloyati bo‘yicha
olingan tuxum
hajmi, ming dona




Baliq


Hajmi, t.



O'sish sur'ati. %da




Ishlab chiqarilgan mahsulotning xo'jalik toifalari bo'yicha taqsimlanishi




- Fermer xo'jaliklari
- Dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari
- Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar



2021 yining yanvar-iyun oylarida barcha toifadagi xo'jaliklar tomonidan 2838 tonna (2020 yilning yanvar-iyuniga nisbatan 23,2 %ga ko'p) baliq ovlandi. Ovlangan baliqlar xo'jalik toifalari bo'yicha tahlil qilinganda, ovlangan baliq umumiy hajmidan 70,4 % fermer xo'jaliklari hissasiga to'g'ri kelganini ta'kidlash lozim.



Farg‘ona viloyati bo‘yicha
ovlangan baliq
hajmi, tonna



**2021 yilning yanvar-iyun oylarida ishlab chiqarilgan
chorvachilik mahsulotlari**

	<i>Miqdori</i>	<i>o‘shish sur‘ati, %da</i>
Go‘sh t (tirik vaznda), ming tonna	83 606	106,7
<i>shu jumladan:</i>		
Fermer xo‘jaliklari	3 407	105,9
Dehqon (aholining shaxsiy yordamchi) xo‘jaliklari	70 364	100,4
Qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar	9 835	195,6
Sut, ming tonna	484 631	105,6
<i>shu jumladan:</i>		
Fermer xo‘jaliklari	35 021	100,8
Dehqon (aholining shaxsiy yordamchi) xo‘jaliklari	448 133	106,0
Qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar	1 477	100,2
Tuxum, mln. dona	265 115	105,4
<i>shu jumladan:</i>		
Fermer xo‘jaliklari	58 781	110,4
Dehqon (aholining shaxsiy yordamchi) xo‘jaliklari	178 380	103,3
Qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar	27 954	109,2


Chorva mollari va parrandalar bosh soni

2021 yilning 1 iyul holatiga ko'ra, yirik shoxli qoramollarning umumiy bosh soni 1 022,6 ming taga etdi.


2020 yilning mos davri bilan solishtirilganda, barcha toifadagi xo'jaliklarda yirik shoxli qoramollar bosh soni – 16,2 ming taga (1,6 %) ko'paydi.

Yirik shoxli qoramollar


Soni, ming bosh



O'sish sur'ati, %da



Bosh sonining xo'jalik toifalari bo'yicha taqsimlanishi




- Fermer xo'jaliklari
- Dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari
- Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar



2021 yilning 1 iyul holatiga ko'ra, yirik shoxli qoramollar bosh soni to'g'risidagi ma'lumotlar xo'jalik toifalari bo'yicha tahlil etilganda, jami yirik shoxli qoramollarning 92,8 % dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklariga to'g'ri kelishi kuzatildi.



**Fargʻona viloyati boʻyicha
yirik shoxli qoramollarning
umumiy bosh soni, ming bosh**




2021 yilning 1 iyul holatiga ko'ra, sigirlarning umumiy bosh soni 370,4 ming taga etdi.


2020 yilning mos davri bilan solishtirilganda, barcha toifadagi xo'jaliklarda sigirlar bosh soni – 6,1 ming taga (1,7 %) ko'paydi.

Sigirlar


Soni, ming bosh



O'sish sur'ati, % da




**Bosh soning
xo'jalik toifalari
bo'yicha taqsimlanishi**




- Fermer xo'jaliklari
- Dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari
- Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar



2021 yilning 1 iyul holatiga ko'ra, sigirlarning bosh soni to'g'risidagi ma'lumotlar xo'jalik toifalari bo'yicha tahlil etilganda, sigirlarning 93,5 % dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklariga to'g'ri kelishi kuzatildi.




**Farg‘ona viloyati
bo‘yicha sigirlarning
umumiy bosh soni,
ming bosh**




2021 yilning 1 iyul holatiga ko‘ra, qo‘y va echkilarning umumiy bosh soni 884,5 ming taga etdi.

2020 yilning mos davri bilan solishtirilganda, barcha toifadagi xo‘jaliklarda qo‘y va echkilar bosh soni – 15,6 ming taga (1,8 %) ko‘paydi.

Qo‘y va echkilar



Bosh sonining xo‘jalik toifalari bo‘yicha taqsimlanishi




- Fermer xo‘jaliklari
- Dehqon (shaxsiy yordamchi) xo‘jaliklari
- Qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar



2021 yilning 1 iyul holatiga ko‘ra, qo‘y va echkilar bosh soni to‘g‘risidagi ma‘lumotlar xo‘jalik toifalari bo‘yicha tahlil etilganda, jami qo‘y va echkilarning 92,1 % dehqon (shaxsiy yordamchi) xo‘jaliklariga to‘g‘ri kelishi kuzatildi.




**Farg‘ona viloyati bo‘yicha
qo‘y va echkilarning
umumiy bosh soni,
ming bosh**




2021 yilning 1 iyul holatiga ko'ra, otlarning umumiy bosh soni 9 390 taga etdi.
2020 yilning mos davri bilan solishtirilganda, barcha toifadagi xo'jaliklarda otlar bosh soni – 342 taga (3,8 %) ko'paydi.

Otlar


Soni, bosh



O'sish sur'ati, %da



Bosh sonining xo'jalik toifalari bo'yicha taqsimlanishi




- Fermer xo'jaliklari
- Dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari
- Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar



2021 yilning 1 iyul holatiga ko'ra, otlar bosh soni to'g'risidagi ma'lumotlar xo'jalik toifalari bo'yicha tahlil etilganda, otlarning 80,3 % dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklariga to'g'ri kelishi kuzatildi.



Farg'ona viloyati
bo'yicha otlarning
umumiy bosh soni, bosh




2021 yilning 1 iyul holatiga ko'ra, parrandalarning umumiy bosh soni 8 820,5 ming taga etdi.


2020 yilning mos davri bilan solishtirilganda, barcha toifadagi xo'jaliklarda parrandalar bosh soni – 867,1 ming taga (110,9 %) ko'paydi.

Parrandalar


Soni, ming bosh



O'sish sur'ati, %da



**Bosh sonining
xo'jalik toifalari
bo'yicha taqsimlanishi**




- Fermer xo'jaliklari
- Dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari
- Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar



2021 yilning 1 iyul holatiga ko'ra, parrandalar bosh soni to'g'risidagi ma'lumotlar xo'jalik toifalari bo'yicha tahlil etilganda, parrandalarning 59,5 % dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklariga to'g'ri kelishi kuzatildi.



Fargʻona viloyati boʻyicha
parrandalarning
umumiy bosh soni,
ming bosh



**2021 yilning 1- iyul holatiga chorva mollari
va parrandalar bosh soni**

	<i>ming bosh</i>	<i>O'sish sur'ati, % da</i>
Yirik shohli qoramol	1 022,6	101,6
<i>shu jumladan:</i>		
Fermer xo'jaliklari	65,0	120,1
Dehqon (aholining shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari	948,7	100,6
Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar	8,9	100,0
ulardan sigirlar	370,4	101,7
<i>shu jumladan:</i>		
Fermer xo'jaliklari	21,9	126,6
Dehqon (aholining shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari	346,2	100,3
Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar	2,3	115,0
Qo'y va echkilar	884,5	101,8
<i>shu jumladan:</i>		
Fermer xo'jaliklari	65,7	111,4
Dehqon (aholining shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari	814,5	101,1
Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar	4,3	107,5
Otlar	9,4	103,8

	<i>ming bosh</i>	<i>O'sish sur'ati, % da</i>
<i>shu jumladan:</i>		
Fermer xo'jaliklari	1,7	115,4
Dehqon (aholining shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari	7,6	101,1
Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar	0,1	138,4
Parrandalar	8 820,5	110,9
<i>shu jumladan:</i>		
Fermer xo'jaliklari	920,8	78,0
Dehqon (aholining shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari	5 248,7	103,7
Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar	2 651,0	154,8

IV. INVESTITSİYALAR VA QURILISH

2021 yil yanvar-iyun oylarida asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalarning umumiy hajmi milliy valyutada 5 923,9 mlrd. soʻmni (AQSH dollari ekvivalentidagi hajmi 0,56 mlrd. AQSH dollarini) yoki 2020 yilning mos davriga nisbatan oʻsish surʼati 112,7 %ni tashkil qildi.


Moliyalashtirish manbalari boʻyicha asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalarning taqsimlanishi (2021 yil yanvar-iyun)

	Mrd. soʻm	oʻsish surʼati, %da	yakunga nisbatan % hisobida
Asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar	5 923,9	112,7	100,0
<i>shu jumladan</i>			
Markazlashgan investitsiyalar:	499,2	96,9	8,4
byudjet mablagʻlari	283,7	80,2	4,8
Oʻzbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi Suv taʼminoti va kanalizatsiya tizimlarini rivojlantirish jamgʻarmasi	84,8	168,0	1,4
Tiklanish va taraqqiyot jamgʻarmasi	57,8	0,0	1,0
hukumat kafolati ostida chet el kreditlari	72,9	65,8	1,2
Markazlashmagan investitsiyalar	5 424,7	114,4	91,6
korxonalarining oʻz mablagʻlari	1 557,9	101,2	26,3
aholi mablagʻlari	761,7	111,8	12,9
toʻgʻridan-toʻgʻri xorijiy investitsiya va kreditlar	2 222,8	102,2	37,5
tijorat bank kreditlari va boshqa qarz mablagʻlari	882,3	254,1	14,9

Davlat byudjetidan ajratilgan investitsiyalar ijtimoiy sohani va hayotiy taʼminot tizimini qoʻllab quvvatlashga, Fargʻona viloyati infrastrukturasi rivojlantirishga qaratilgan manzilli investitsiya dasturlarini amalga oshirish uchun yoʻnaltirilgan.


Asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalarda markazlashgan va markazlashmagan investitsiyalarning ulushlari

(yanvar-iyun umumiy xajmga nisbatan, %da)




Asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalarning markazlashgan moliyalashtirish manbalari

(yanvar-iyun jami investitsiyalar hajmidagi ulushi, %da)




Asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalarning markazlashmagan moliyalashtirish manbalari

(yanvar-iyun jami investitsiyalar hajmidagi ulushi, %da)




Markazlashgan moliyalashtirish manbalari hisobidan jami investitsiyalardagi tarkibi, %

O'tgan yilning mos davriga nisbatan, %da



Markazlashmagan moliyalashtirish manbalari hisobidan jami investitsiyalardagi tarkibi, %da

O'tgan yilning mos davriga nisbatan, %da



Asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalarning markazlashgan moliyalashtirish manbalari hisobidan kiritilgan jami investitsiyalar 499,2 mlrd.

soʻmni tashkil etib, oʻtgan yilning mos davriga nisbatan 96,9 %ni tashkil etib (umumiy hajmdagi ulushi 8,4 %), shundan byudjet mablagʻlari 283,7 mlrd. soʻmni, oʻtgan yilning mos davriga nisbatan 80,2 %ni tashkil etib, (umumiy hajmdagi ulushi 4,8%), Oʻzbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi Suv taʼminoti va kanalizatsiya tizimlarini rivojlantirish jamgʻarmasi 84,8 mlrd. soʻmni tashkil etdi, oʻtgan yilning mos davriga nisbatan 168,0 %ni tashkil etdi. Oʻzbekiston Respublikasi kafolati ostidagi xorijiy investitsiya va kreditlar 72,9 mlrd. soʻmni tashkil etib, oʻtgan yilning mos davriga nisbatan 65,8 %ni tashkil etganini taʼkidlash lozim.

Asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalarning markazlashmagan moliyalashtirish manbalari hisobidan kiritilgan jami investitsiyalar 5 424,7 mlrd. soʻmni tashkil etdi, oʻtgan yilning mos davriga nisbatan 114,4 %ni (jami investitsiyalar hajmidagi ulushi 91,6 %) tashkil etdi. Shundan jami investitsiyalar hajmida eng koʻp ulush toʻgʻridan-toʻgʻri xorijiy investitsiya va kreditlar xisobiga toʻgʻri kelib, 2 222,8 mlrd. soʻmni tashkil etib, oʻtgan yilning mos davriga nisbatan 102,2 %ga oshgan (jami investitsiyalar hajmidagi ulushi 37,5 %), korxonalarining oʻz mablagʻlari hisobiga oʻzlashtirilgan investitsiyalar 1 557,9 mlrd. soʻmni, oʻtgan yilning mos davriga nisbatan 101,2 %ni (jami investitsiyalar hajmidagi ulushi 26,3 %) tashkil etdi, 761,7 mlrd. soʻm aholi mablagʻlari hisobiga oʻzlashtirilgan investitsiyalar boʻlib, oʻtgan yilning mos davriga nisbatan 111,8 %ni (jami investitsiyalar hajmidagi ulushi 12,9 %) tashkil etdi. Tijorat banklari kreditlari va boshqa qarz mablagʻlari 882,3 mlrd. soʻmni tashkil etib, oʻtgan yilning mos davriga nisbatan 2,5 marta (jami investitsiyalar hajmidagi ulushi 14,9 %) tashkil etdi.

**Asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalarning
moliyalashtirish manbalari bo'yicha tarkibi**

(2021 yil yanvar-iyun)

